

2019 yil yakuniga ko'ra Avtomobil yo'llari qo'mitasining asosiy faoliyat ko'rsatkichlari to'g'risida taxliliy MA'LUMOT


T/r	Asosiy faoliyat turi bo'yicha ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2018 yil amalda	2019 yil amalda	O'tgan yilga nisbatan (%)
	Bajarilgan ish xajmi, jami	mlrd.so'm	3531,2	4233,9	119,9
	shu jumladan:				
1	Investitsiya dasturi bo'yicha	mlrd.so'm	686,5	1158,1	168,7
		km	96,3	101,4	105,3
2	To'la ta'mirlash ishlari	mlrd.so'm	392,2	415,8	105,7
		km	82,7	86,7	104,8
3	Mintaqaviy yo'llarni ta'mirlash	mlrd.so'm	909,6	1283,3	141,1
		km	6485,1	7543,4	116,3
4	Umumiy foydalanuvdagi avtomobil yo'llarini joriy ta'mirlash va saqlash ishlari	mlrd.so'm	1542,9	1376,7	89,2
		km	3252,0	3350,0	103,0
5	Yangi ishjoylarini yaratish	kishi	1366	373	27,3
6	Qora metall chiqindilarini topshirish	tonna	15981,0	15003,0	94,0

Qo'mita tizimidagi korxonalar va tashkilotlar 2019 yil davomida Investitsiya dasturiga asosan umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarida **1158,1 mlrd. so'mlik** qurish va rekonstruktsiya qilish

ishlari amalga oshirildi. Ushbu ko'rsatkich 2018 yilning xuddi shu davriga nisbatan **168,7 foiz**ni tashkil etadi.

Bundan tashqari to'la ta'mirlash dasturiga asosan umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarida **415,8 mlrd.so'mlik** ta'mir ishlari bajarildi. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilga nisbatan **105,7 foiz**ga oshgan.


2018-2019 yillar yakuniga ko'ra asosiy faoliyat ko'rsatgichlarining taqqoslama diagrammasi



2019 yil yakuni bo'yicha Respublikamizdagi **7543,4 km** mintaqaviy avtomobil yo'llari ta'mirlandi. Shu jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasida **551,5 km**, Andijonda **584,6km**, Buxoroda **485,3 km**, Jizzaxda **442,6 km**, Qashqadaryoda **588,5 km**, Navoiyda **504,7 km**, Namanganda **553,4 km**,

Samarqandda **609,2 km**, Surxandaryoda **626,7 km**, Sirdaryoda **437,5 km**, Toshkent viloyatida **684,3 km**, Farg'onada **540,4km**, Xorazmda **642,7km** hamda Toshkent shahrida **292,0 km** mintaqaviy avtomobil yo'llarida ta'mirlash ishlari olib borildi. Mintaqaviy ichki yo'llar ta'miri hajmi esa o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan **116,3 foizni** tashkil etadi.

2019 yil yakuniga ko'ra mintaqaviy avtomobil yo'llarini ta'mirlash (xududlar kesimidagi diagramma)



2019 yil davomida Respublika bo'yicha avtomobil yo'llarida **42695 km** uzunlikdagi yo'llardan **3350,0 kmdan iborat** qismida joriy ta'mirlash ishlari amalga oshirilib, ularning holati yaxshilandi. Bu esa 2018 yilga qaraganda **103,0 foizni** tashkil etadi.

Tizim korxonlari tomonidan 2019 yilda **373 ta** yangi ish o'rinlari yaratildi. Bu ko'rsatkich esa 2018 yilning mos ravishdagi tegishli davriga qaraganda **27,3 foizni** tashkil etadi.

Korxonlar tomonidan qora metall chiqindilari topshirish ko'rsatkichi 2019 yilda **15003 tonna**ni tashkil etadi. Bu esa o'tgan yilga qaraganda **94,0 foiz**ni tashkil etadi.

Xulosa qilib aytganda, Avtomobil yo'llari qo'mitasining 2019 yilda – umumiy bajarilgan ishlar xajmi – **4233,9 mlrd. so'm**dan iborat. Bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan **119,9 foiz**ni tashkil etganligini ko'rsatadi.